

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI TA'LIM JARAYONIDA SAMARALI QO'LLASH

Namangan viloyati Uychi tumani

6-son DMTT psixologi

Abdullayeva E'tibor Mahmudjanovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarini ta'lim jarayonida samarali qo'llash masalalari yoritilgan. Multimedia texnologiyalarining tarixiy shakllanishi, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va pedagogik ahamiyati tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования мультимедийных средств в образовательном процессе дошкольных образовательных организаций. Проанализированы исторические этапы формирования понятия «мультимедиа», его роль и педагогическое значение в современной системе образования.

Kalit so'zlar: Multimedia, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv ta'lim, maktabgacha ta'lim, innovatsion texnologiyalar, elektron taqdimot, ta'limiy o'yinlar, raqamli pedagogika, interfaol platforma, didaktik vositalar.

Ключевые слова: Мультимедиа, информационно-коммуникационные технологии, интерактивное обучение, дошкольное образование, инновационные технологии, электронная презентация, обучающие игры, цифровая педагогика, интерактивная платформа, дидактические средства.

Multimedia atamasi qo'shiqchi va rassom Bob Goldshteyn tomonidan 1966 yil iyul oyida Long-Aylend shtatining Sautgempton shahridagi L'Oursindagi LightWorks ko'rgazmasining ochilishini targ'ib qilish uchun kiritilgan. 1966 yil 10 avgustda Varetedan Richard Albarino eng yangi musiqiy shou uchun reklama yaratish orqali terminologiyani oldi. Ikki yil o'tgach, 1968 yilda "multimedia" atamasi hujjatlarda qayta tilga olindi. Yillar davomida bu so'z turli xil ma'nolarga ega bo'ldi. 1970-yillarning oxirida ko'p proyeksiyali slayd-shoulardan iborat taqdimotlarga ishora qiluvchi atama audio trek bilan chegaralangan edi. Biroq, 1990-yillarda "multimedia" texnologiyasi tushunchasi hozirgi ma'nosiga ega bo'ldi. 1993 yilda "Multimedia: Making This Work" asarining birinchi nashrida Tey Vogan bu kompyuter tomonidan qayta ishlab chiqariladigan matn, grafik, tovush, animatsiya va videoning har qanday birikmasi ekanligini aniqladi. Agar siz ushbu fayllarni ko'rayotgan foydalanuvchiga ushbu kontentni boshqarishga ruxsat bersangiz, u interaktiv media hisoblanadi. Agar foydalanuvchi harakatlana oladigan tegishli elementlarning tuzilishi ta'minlansa, interaktiv media gipermediaga aylanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimiga innovatsion

texnologiyalarning interfaol dasturiy vositalarini tatbiq etish yanada kengroq imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarsiz hech bir soha taraqqiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda zamonaviy axborot texnologiyari kompyuterlashtirish va sohaga innovatsiyalarni joriy etish yosh avlodning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Bugungi kunda bolalar rivojiga multimedia texnologiyalari ta'sirining ko'zga tashlanib turgan ayrim jihatlarini ko'rib chiqaylik. Oilalarda mediatexnologiyalardan qanchalik ko'p foydalanilib borilishi bilan bolalarga bilim beruvchi, savodxonlikni o'rgatishga yordam beruvchi dasturlar soni ham ko'payib bormoqda. Bundan tashqari, Internet tarmog'iga ulangan televideniye va kompyuter qurilmalari bolalar uchun atrof-muhitni va hayotiy vaziyatlar bilan tanishib borishda katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Haqiqatdan ham zamonaviy ta'limiy muhit ko'z oldimizda kompyuter texnologiyalarisiz shakllana olmaydi. Bolalar bilimi va dunyoqarashini kengaytirishda Internetga ulangan qurilmalar taqdim etadigan turli ta'limiy resurslar muhim ahamiyatga molik. Kompyuter o'yinlarining mazmunida fan bo'yicha ta'limiy multimediali materiallarning berilishi o'qishida muammosi bo'lgan bolalar uchun juda foydali omil bo'ladi. Kompyuterni maktabgacha tarbiya tashkilotlari tizimiga joriy etayotgan tarbiyachi hamda o'qituvchilar kompyuterni samarali zamonaviy ta'limiy texnik vosita deb hisoblaydilar, uning yordamida bolalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ta'lim va tarbiya jarayonini qiziqarli tarzda rang-barang mazmun bilan boyitish mumkin.

Multimediya vositalari (multimedia – ko'pvositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyi-dagilar kiradi:

Ta'lim-tarbiya jarayonida multimediya vositalaridan foydalanishdan maqsad;

- bolalarning mehnatga qiziqishi va faolligi keskin oshadi;
- fikrlashning algoritmik uslubi rivojlanadi, optimal qarorlar qabul qilish, o'zgaruvchan harakat qilish qobiliyati shakllanadi;
- bola muntazam ishlarning massasidan ozod qilinadi, olingan natijalar asosida ijodiy faoliyat uchun imkoniyat ta'minlanadi.



«MULTIMEDIA» atamasining asosiy maʼnosi multi muhitni anglatadi. Ammo «multimedia» tushunchasining aniq taʼrifi maʼlum emas. Odatda, multimedia deganda turli shakldagi maʼlumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Ayni vaqtda bu avvalo, tovushlar, video elementlarni qayta ishlovchi vositalardir. Shu bilan birga multiplikasiya (animatsiya)

va yuqori sifatli grafika hollarida ham multimedia haqida gapirish mumkin. Kelajakda multimedia vositalari maʼlumotning boshqa turlari, masalan, virtual voqeilik bilan ishlash imkonini berishi ehtimoldan xoli emas.

Zamonaviy multimedia vosiyalarining afzalliklari:

➤ **Qiziqish va diqqatni oshirish:** Raqamli vositalar bolalarda materialga nisbatan qiziqishni oshiradi va ularning eʼtiborini uzoqroq vaqt davomida saqlab qoladi.

➤ **Individual yondashuv:** Multimedia vositalari har bir bola bilan individual ishlash imkonini beradi. Masalan, ayrim bolalar vizual oʻrganuvchilar boʻlsa, boshqalari ovozli darslarni yaxshi qabul qiladi.

➤ **Koʻnikmalarni rivojlantirish:** Bolalarda mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

➤ **Ijtimoiy koʻnikmalarni oshirish:** Guruh boʻlib multimedia oʻyinlarini oʻynash bolalarda jamoaviy ishlash qobiliyatini shakllantiradi.

Shundan kelib chiqib, multimediali texnologiyalar axborotni maksimal samarali tarzda taqdim etishga imkon beradi. Videodan farqli ravishda multimediali texnologiyalar axborotlarni boshqarishga imkon beradi, yaʼni interfaol boʻlishi mumkin. Multimediali taqdimot maʼlumotni toʻgʻridan toʻgʻri qabul qilishni taʼminlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha maʼlumotlarni koʻradi va oʻzini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Maʼlumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi. Matn va videoning onlayn usulidagi trening jarayonida birga ishlatilishi. Multimedia materiallarining potensial afzalliklari haqida Meyer (Mayer) ham aytib oʻtgan.

Multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- fan boʻyicha asosiy bilimlarni oʻzlashtirish;
- oʻzlashtirilgan bilimlar izchilligini taʼminlash;
- oʻz - oʻzini nazorat koʻnikmasini shakllantirish;
- bilim olishga boʻlgan ehtiyojini rivojlantirish;
- tarbiyalanuvchi oʻquv materialini ustida mustaqil ish olib borishlarida oʻquv – metodik yordam koʻrsatish.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib quyidagi **xulosalarni** keltirish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida multimedidan foydalanishda interaktiv o'yinlar, onlayn platformalar, elektron darsliklar, taqdimotlardan foydalanish samarali natija beradi. Shular qatorida, Internet ma'lumotlaridan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Multimedia yordamida tayyorlangan interaktiv o'yinlar va multimedia mahsulotlari psixologik jihatdan bolalarning faollashuvi, diqqatining barqarorlashishi, bola miyasining ikkala yarim sharining bir vaqtda ishlashi, o'rganiladigan materialga qiziqishlari va ishtiyoqining ortishi kabi psixologik jihatlarini tashkil etadi. Kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish ijobiy natija berishi bilan bir qatorda, vaqtni tejash, imkoniyatlarni e'tiborga olish va ma'lumotlarni tez, oson etkazishni ta'minlaydi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshiradi, bolalarning qiziqishini kuchaytiradi hamda bilimni mustahkamlash jarayonini yengillashtiradi. Biroq multimedia vositalari an'anaviy pedagogik usullarni to'liq almashtirmasligi, balki ularni boyituvchi vosita sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy pedagog multimedia

texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali ta'lim jarayonini interaktiv, samarali va innovatsion shaklda tashkil etishi mumkin. Maktabgacha ta'limda zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa multimediya vositalarining qo'llanilishi jahon ta'lim tizimida muhim o'zgarishlarga olib kelmoqda. Maktabgacha ta'limdagi multimediya vositalari bolalarning kognitiv va motorik rivojlanishiga yordam beradi, ularni mustaqil o'rganishga, ijodiy fikrlashga, diqqat va xotirani rivojlantirishga undaydi. Multimediya vositalarining foydalanishining maqsadi ta'lim jarayonini boyitish, bolalarga ta'limni o'zlashtirishni osonlashtirish va darslarning sifatini oshirishdir.

Maktabgacha ta'limda multimediya vositalarining qo'llanilishi bolalar uchun ta'limni osonlashtiradi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, kognitiv qobiliyatlarni yaxshilaydi.

Multimediya vositalarining samarali qo'llanilishi ta'lim sifatini oshiradi va bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adilova.S.Multimedia vositalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. Pedagogik ta'lim.T: 2011.
2. Sodiqova.Sh.Maktabgacha pedagogika.T.: 'O'qituvchi', 2008-173-bet.
3. Begmatov.N.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyati.Qarshi: Nasaf. 2011.-257-b.
4. Azlarov.T.Y. Kompyuter savodining tabaqalashgan talablari. T.: 1998.
5. Mexmonov.D. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlang'ich kompyuter savodxonligi. T.: 2010
6. Allaberganova M.X. Informatikadan interaktiv o'quv majmualar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish. P.f.n. darajasini olish uchun dis. avtoreferati - Toshkent: MCHJ "Fan va ta'lim poligraf". - 2012 y.-22